

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI DEFEKTOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MALAKA SINOVIDA
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

**MAKTABGACHA, UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI
TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DEFETOLOGIYA
FANIDAN MALAKA SINOV TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya maktabgacha ta’lim tashkilotlari defektologlarini attestatsiyadan o‘tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezoni va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning defektologiya fani bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Maktabgacha, umumiy o‘rta ta’lim va maktabdan tashqari tashkiloti defektologiya mutaxassislik fanidan 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, hammasi bo‘lib 50 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va umumiy

test topshirig'ini bajarish uchun jami 90 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari, moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari*) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
Defektologiya fanining umumiy masalalari (1-8 savollar)		
Defektologiyaning predmeti, vazifalari, tamoyillari, asosiy kategoriyalari	-Defektologiyaning asosini, uning predmeti, vazifalari, prinsiplari, asosiy kategoriyalari, bo'limlari va metodlarini bilish; -fanlararo aloqadorligini tushunish; -rivojlanish nuqsonlarini tasniflash va tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lish; -maxsus ehtiyojli bolalar bilan korreksion ish olib borishda fanlararo yondashuv va zamonaviy texnologiyalarni qo'llay olish.	4
Rivojlanish normasi. Rivojlanish anomaliyalari	-Rivojlanish normalarini va ularning turlarini, "anomaliya" tushunchasini, rivojlanishdagi og'ishlarning xususiyatlari va sabablarini bilish; -og'ishlarni aniqlay olish, ularning kelib chiqish tabiati va bola rivojlanishiga ta'sirini tushunish; -korreksion usullarni qo'llay olish hamda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.	4
Oligofrenopedagogika (9-12 savollar)		
Aqliy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar	-Aqliy zaiflikning tasnifini hamda intellektual rivojlanishida og'ish bo'lgan bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlarini bilish; -ularning bilish jarayonlari o'ziga xosligini hisobga olish; -har bir yosh davrida ta'lim va tarbiyaning vazifalarini tushunish; -samarali metodikalarni qo'llay olish va moslashtirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalana olish.	4
Logopediya (13-17 savollar)		

Nutqida nuqsoni bor bolalar	<i>-Logopediya fanining predmeti, vazifalari va prinsiplari, nutq buzilishlarining sabablari va tasnifini bilish;</i> <i>-ularning klinik, psixologik va pedagogik xususiyatlarini aniqlay olish;</i> <i>-og‘zaki va yozma nutqdagi buzilishlarning o‘ziga xosligini tushunish;</i> <i>-logopedik yordam metodlarini qo‘llay olish hamda nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalashda samarali texnologiyalardan foydalana olish.</i>	5
Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar (18-20 savollar)		
Tayanch-harakat a‘zolarining funksiyasi buzilgan bolalar	<i>-Bolalarda uchraydigan bolalar serebral falaji (BSF) va boshqa harakat buzilishlarining umumiy tavsifi, harakat nuqsoni tuzilmasi hamda harakat buzilishlarining tasnifini bilish;</i> <i>-bu toifadagi bolalarga yordam ko‘rsatish, ularning ta’lim-tarbiyasini tashkil etish;</i> <i>-shaxsiy, emotsional-irodaviy va bilish sohalarining xususiyatlarini tushunish;</i> <i>-moslashtirilgan metodikalardan foydalanish hamda korreksiya va rehabilitatsiyaga qaratilgan maxsus vositalarni qo‘llay olish.</i>	3
Surdopedagogika (21-24 savollar)		
Eshitishda nuqsoni bor bolalar	<i>- Surdopedagogikaning predmeti va vazifalarini bilish;</i> <i>-eshitish nuqsonlarining sabablari va tasnifi, eshituv analizatori faoliyatida nuqsoni bo‘lgan bolalarning asosiy toifalarini bilish;</i> <i>-ularning bilish va shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish;</i> <i>-korreksion-pedagogik ishlarning o‘ziga xosligini tushunish;</i> <i>-samarali metodikalardan foydalanish hamda eshitishni rehabilitatsiya qilishga qaratilgan texnik va pedagogik vositalarni qo‘llay olish.</i>	4
Tiflopedagogika (25-29 savollar)		
Ko‘rishda nuqsoni bor bolalar	<i>-Tiflopedagogika fanining predmeti va vazifalari;</i> <i>-ko‘rish buzilishlarining turlari, sabablari va oqibatlarini bilish;</i> <i>-bu toifadagi bolalarda shaxs shakllanishi xususiyatlarini hisobga olish;</i> <i>-korreksion ta’lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xosligini tushunish;</i>	5

	<i>-moslashtirilgan metodikalardan foydalanish hamda maxsus texnik va pedagogik vositalarni qo'llay olish.</i>	
Hissiy-irodaviy soha va xulq-atvor buzilishi bo'lgan bolalar (30-32)		
Bolalarda autizm spektr buzilishlari	<i>-Bolalikdagi erta autizm sindromiga ega bolalarning xususiyatlarini, RDA (bolalarda autizm spektr buzilishlari) psixologiyasining predmeti va vazifalarini bilish;</i> <i>-ularning bilish, shaxsiy va emotsional-irodaviy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish;</i> <i>-faoliyat yuritishdagi o'ziga xoslikni tushunish;</i> <i>-bolalik autizmi diagnostikasi va korreksiyasi, diagnostika metodlarini qo'llay olish hamda samarali korreksion texnologiyalardan foydalanish.</i>	3
Ruhiy rivojlanishi kechikkan bolalar (33-35 savollar)		
Ruhiy rivojlanishi kechikkan bolalar	<i>-Ruhiy rivojlanishi kechikkan (RRK) bolalarning xususiyatlarini bilish;</i> <i>- ularning korreksion ta'lim va tarbiyasini tashkil eta olish;</i> <i>-bilish, shaxsiy hamda emotsional-irodaviy sohalar rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini tushunish;</i> <i>-samarali pedagogik metodlarni qo'llay olish va rivojlantirish hamda ijtimoiylashtirish uchun maxsus vositalardan foydalana olish.</i>	3

Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

2-jadval

1. KASB STANDARTI (36 – 40-savollar)		5 ta
1.1. Kasbiy standartlar	– pedagogning kasbiy standartlari (o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish, hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish)ni bilish va pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish.	5
2. PEDAGOGIK MAHORAT (41 – 50-savollar)		10 ta

Pedagogik mahorat	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslari va yondashuvlarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo'llay olish, – ta'lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, evristik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inkluziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – maxsus pedagogika, inkluziv ta'limning nazariy asoslarni bilish, o'quv-korreksion mashg'ulot metodlarini farqlash – maxsus fanlarni o'qitishda keyslar asosida to'g'ri pedagogik yechimni tanlash, rivojlanish dinamikasini baholash tamoyillarini va yondashuvlarni bilish, qaysi holatda qaysi texnologiyalarning mosligini bilish – test, so'rovnomalar, kuzatuv metodlarining qo'llanish doirasini bilish va mos yondashuvni vaziyatga qarab tanlash	10
Jami		15 ta

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

2-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
-----	-----------------	-------	-----------

1	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	8
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	35
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 2 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy ball 100 ni tashkil qiladi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. Oligofrenopedagogika. Oligofrenopedagogikaning asoslari: o'quv qo'llanma / V.M.Mozgovoy, I.M.Yakovleva., A.A.Eremina. – M.: “Akademiya” nashriyot markazi, 2006.
2. Maxsus pedagogika: o'quv qo'llanma / L.R.Muminova. – Toshkent: Noshir, 2012. – 128 bet.
3. Logopediyaning asoslari: O'quv qo'llanma / T.B.Filicheva, N.A.Cheveleva., G.V.Chirkina. – M.: Ma'rifat, 1989. – 223 bet.
4. Maxsus pedagogika va korreksion psixologiya: o'quv-uslubiy majmua / T.G.Neretina. – M.: Flinta, 2008. – 376 bet.
5. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining defektologiya fakultetlari talabalari uchun darslik / L.S.Volkova, S.N.Shaxovskaya. – M.: Vlados, 2003. – 680 bet.
6. Maxsus pedagogika: O'quv qo'llanma / N.M.Nazarova, L.I.Aksenova, B.A.Arkipov, L.I.Belyakova. – M.: “Akademiya” nashriyot markazi, 2005. – 400 bet.
7. 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan o'quv dasturi / I.V.Grosheva, E.N.Nazarova, E.A.Nekrasova, E.F.Tsay, B.P.Abdullayeva, U.T.Muxitdinova. – Toshkent, 2019.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-sonli qarori. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.
9. Logopediya: Pedagogika oliy o'quv yurtlari “Defektologiya” mutaxassisligi talabalari uchun / M.Yu.Ayupova, L.R.Muminova, G.V.Chirkina. – Toshkent, 2011. – 236 bet.
10. Pedagog-defektologning ish kitobi / T.O.Epifantsev. – Rostov-na-Donu: Feniks, 2007.
11. Defektologiya. Maxsus pedagogika va maxsus psixologiya / V.P.Gluxov. – M.: MPGU, 2017. – ISBN 978-5-4263-0575-5.
12. Defektologiya. Lug'at-qo'llanma / S.S.Stepanov. – M.: “Muallif”, 2004.
13. Maktabgacha oligofrenopedagogika / A.A.Kataeva, E.A.Strebeleva. – M.: Vlados, 2005. – 208 bet.
14. Logopediya jadvallar, sxemalar, raqamlar shaklida / T.V.Pyatnitsa. – Rostov-na-Donu: Feniks, 2018. – 173 bet.
15. Ko'rish qobiliyati buzilgan maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va rivojlanishini korrektsiyalash: Uslubiy qo'llanma / L.M.Shipitsina. – Sankt-Peterburg: Ma'rifat, 1995.
16. Tayanch-harakat a'zolarining funksiyasi buzilgan bolalar. O'quv qo'llanma / A.V.Krotkova, V.V.Satari. – M.: Ma'rifat, 2023.

17. Hissiy-irodaviy soha buzilishi bo'lgan bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish / O.I.Kuznetsova, M.S.Staroverova. – 2020.
18. Ruhiy rivojlanishi kechikkan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish / N.V.Miklyeva. – M.: Yurayt, 2023.
19. Pedagogika institutlari talabalari uchun o'quv qo'llanma / V.A.Lapshin. – M.: Ma'rifat, 1991.
20. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni diagnostikasi / D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidov. – Toshkent, 2016.
21. Defektologiya klinik asoslari / M.R.Po'latxo'jayeva. – Toshkent, 2013.
22. Maxsus pedagogika (kasb-hunar kollejlari uchun darslik) / L.Muminova, M.Ayupova, D.Nurkeldiyeva, X.Kalbayeva. – Toshkent, 2016.
23. Logopediya / M.Yu.Ayupova. – Toshkent, 2011.
24. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 29-avgustdagi "Maktabgacha ta'lim tashkiloti va pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida" 323 – son buyrug'i.
25. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
26. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: "Bayoz" nashriyoti, 2025. – 504 b.
27. Tolipov O'., Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innovatsiya-ziyo" nashriyoti, 2019. – 276 b.
28. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standarti.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.